

– Tongda chiqqan «Tong yulduzi»,
Go‘yo issiq nonning o‘zi,

– deydi Sariosiyo tumanidagi 36-umumiy o‘rta ta’lim mакtabining 8-sinf o‘quvchisi Mohira SATTOROVA

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong

YULDUZI

O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan



KELAJAK EGASI
SEN O‘ZING ASLI!



ULAR BIR OILADEK...



Uchquduq shahar va tumanlarida bo‘lib o‘tgan ma’naviyat va ma’rifat kechasida Shimoliy kon metallurgiya kombinatiga qarashli 3-bolalar bog‘-chasiдagi ko‘rik-tanlov eng yaxshi tadbirlardan biri deb topildi. Sababi, bog‘cha tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarining aksariyati turli millat vakillari bo‘lishiga qaramay, xalqimizning urf-odati, madaniyati, milliy qadriyatlarini yaxshi bilishlarini namoyon etdilar.

– Biz bir oilamiz, do‘sinoq, birodarmiz, – deydi bog‘cha mudirasi N.Melnikova. – Farzandlarimiz ongiga bog‘cha yoshidanoq Vatan tuyg‘usini singdira olsak, ko‘zlagan maqsadimizga yetamiz.



TO‘GARAKDA BUVIJONLAR

Yangi yilning ilk kunlarida mahalla radioto‘lqinidan tarqalgan xabar hammaning e’tiborini tortdi. Shu sababdan ham poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi «Oqtepa» mahallasi bolajonlar va ota-onalar bilan gavjum bo‘ldi. Yangi yilga bag‘ishlangan bayram dasturida «Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakati, H.Olimjon nomli madaniyat uyi san’atkorlari, mahalla ahli ham faol ishtirok etdi.

– Mahallamizda 10 nafar professor, 32 nafar fan nomzodlari bor. Ular bilan birgalikda ko‘plab tadbirlar, tanlovlardan davra suhbatlari o‘tkazamiz, – deydi «Oqtepa» mahalla maslahatchisi Gulchehra Karimova. – Mahallamiz qoshida «Hikmat – bir hovuch oltin» to‘garagi faoliyat olib boradi. Unga buvi va buvajonlarimiz ham a’zo. Ular yoshlarga ibratli, hikmatli hikoyalar so‘zlab berishadi.

Shuningdek, «Huquqiy savodxonlik» to‘garagida yoshlari o‘z majburiyat va burchlarini o‘rgansa, «Mehr ularshuvchi» to‘garagi a’zolari esa harakatlari cheklangan, yordamga muhtojlarga ma’naviy yordam berayaptilar.

Mahallada tadbirlar tadbirlarga ulanadi. Yaqindagina «Eng kitobxon oila», «Mahallaning eng namunali qizi» kabi tanlovlari bolalar bir-biridan bo‘sh kelmedi.

Ayting-chi, qadrli o‘quvchilar, Sizning mahallangizda, qishlog‘ingizda ham shunday tadbirlar bo‘lyaptimi? Bu haqda biz bilan o‘rtoqlashing.

Sirli olamga Sayohat


Bolalik – beg'uborlik davri. Hayot tashvishlari va qiyinchiliklari ularga tamoman begona. Bolalikda sarguzashtlarga boy bo'lgan ertaklar o'qishni yoki tinglashni kim ham xohlamanagan deysiz?

Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi A.Qodiriy nomli 42-maktabning 3-«A» sinf o'quvchilari «Ertaklar olamiga sayohat» mavzusida ertalik o'tkazishdi. Sahna bolajonlar chizgan ertak qahramonlarining rasmlari hamda rang-barang ko'rgazmalar bilan bezatildi. Kichkintoylar «Oqqushlar» va «Ayiqlular» guruhiga bo'linib, hikmatlar, topishmoqlar, tez aytishlar borasida o'zaro bellashdilar.

– Men ertak kitoblar o'qishni juda yaxshi ko'raman, – deydi ertalik ishtirokchisi Dilfuza Ahmedova. – Javondagi kitoblarning hajmi va shakliga, tartibili terilishiga ham e'tibor beraman. O'zim ham ertak va masallar yozib turaman.

Ertalik so'ngida oliy toifali pedagog, Xalq ta'lumi a'lochisi Zuhra opa Shakarboyeva har ikkala guruhdan olingan javoblarni jamlab, g'oliblarni rag'batlantirdi.

Abdulla SAIDOV



Ming
yillar
mobaynida
odamlar ot
minganlar,
yukni
hayvonlar ustiga
ortib tashiganlar.

Ko'pincha otliq kishi


orqasida yuk tashuvchi otni ham
ergashtirib yurgan. Chana esa
sudratma arava – ikki g'o'лага mahkamlangan g'ildiraksiz
ot abzaliga o'natilgan, pastki uchi esa yerda sudralib
ketavergan. G'o'lan bukish xayolga kelganda, chananing
sudraluvchi oyoq qismi ixtiro qilingan – chana vujudga
kelgan. Bolalar chanasi, sportchilar chanasi, qorga
qo'nuvchi samolyot va vertolyotlar chanasi – hammasi
o'shandan kelib chiqqan.

ERKATOYLAR BAYRAMI

Qishki ta'til boshlanmasdan 1-sinflar «Alifbe» kitoblaridagi barcha harflarni tanib, savodxonlik bayramini o'tkazishga ham ulgurdilar. Poytaxtdagi 51-fransuz tiliga ixtisoslashtirilgan maktabning 1-«V» sinf o'quvchilari uchun ushbu kun hayotlaridagi unutilmas kunlardan biriga aylandi. Kechagina ota-onasining erkatoyi bo'lgan o'g'il va qizlar to'rt oy davomida savodlari chiqib, o'qish va yozishni o'rganib olganlaridan benihoyat xursand edilar. Birinchi ustozlari Rohila Muhammadjonovna hamda musiqa o'qituvchilari Aleksandra Vladimirovna o'rgatgan she'r-u qo'shiqlarni ijro etib, o'quvchilar nafaqt ustozlari, balki ota-onalari qalblariga ham quvonch va baxt tuyg'ularini ulashdilar.

GULYUZ

A'LOCHI QIZ NIGORA



Nigora Lutfullayeva 274-maktabning 6-«D» sinfida o'qydi. U sinf sardori, sinfdoshlarini aniq maqsad yo'lida birlashtira oladi. Turli tadbirlar uchun o'zi ssenariylar yozadi. Nigora barcha fanlarni 95-100 foizga o'zlashtirdi, baholari doim «5». Buning sababi, Nigoraning ko'po'qishidadir. Kitob javonida Alisher Navoiy, Bobur, Nodira kabi mumtoz adabiyot namoyandalari va hozirgi zamон adabiyoti durdonalari, Xudoiberdi To'xtaboyevning asarlari, «Ertaklar – yaxshilikka yetaklar», «Oqibat», «O'zbek adiblari», «Pinokkioning sarguzashtlari» kabi kitoblar bisyor. Kitobxon qizimiz ertak qahramonlari suratlarini chizishni yoqtiradi. Ona tili va adabiyot, matematikadan olimpiadalarda qatnashib, faxrli o'rirlarni egallab kelmoqda. Nigora bo'sh vaqtlarida gullar parvarishi bilan mashg'ul bo'ladi. Hovilalaridagi rang-barang gullar uning mehri bilan doim yashnab turadi.

– Aslida o'qituvchi bo'lgim keladi. Lekin bu kasb doimo menqa qiyindek tuyulaveradi. Asablarni asrash kerak, – deydi Nigora. Nima bo'lganda ham, Nigora kelajakda yurtimiz ravnaqi uchun xizmat qila oladigan farzand bo'lishiga ishonamiz.

**Maktab direktori: Sayfulla MAHKAMOV,
sinf rahbari: Rahbarxon TOSHKO'JAYEVA**

Avvalo, bu ikki so'zning ma'nosini bilish va unga amal qilgan holda ish yuritish lozim. Ta'lim – bilim olish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, insonni hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi.

Tarbiya esa insonda jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik

TA'LIM ARBIYAV

so'zlarining ma'nosi

jarayondir. Yana u insonning insoniyligini ta'minlaydigan eng qadimiy qadriyat hisoblanadi.

Tarbiyalari bo'lish va ta'limga ega bo'lish yosh avlodning oliy darajasi va yutug'i sanaladi. Shunday ekan, ta'lim olish uchun harakat qilmog'imiz, shuningdek, tarbiya degan tushunchani ham yoddan chiqarmasligimiz shart.

Ruslan IBODOV

ARAZCHIMAN

Odatda ko'pchilik tengdoshlarim gazetaga o'quv maskanlarida bo'lib o'tgan bayramlar, tadbir va tanlovlari haqida maktublar yo'llashadi.

Men esa o'z maktubimni, keling, tanishaylik, deb boshladim. Avvalambor, o'zimni tanishtirsam. Ismim Ma'fura. Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 24-maktabning 11-sinf o'quvchisiman. Adabiyot va san'at jon-u dilim. Ko'proq she'riy kitoblarni o'qiyman. Ulardagi she'rlarni yod olib, maktab sahnasida aytaman. Shuningdek, raqsga tushishni ham eplayman. Lekin, bir kamchiligidan bor: yaxshigina arazchiman. Menga ko'pincha pand berib qo'yadigan bu fe'limni o'zgartirishga harakat qilyapman. Hayotning tekis, raxon, shuningdek, o'nqir-cho'nqir yo'llari bo'ylab odimlashga tayyor turishni o'rganishim lozimligini ham bilaman.

Aziz dugonalar, yoshim 18 da bo'lsa ham, uy-ro'zg'or ishlarida biroz uquvsizroqman. Sizlar bilan gazeta orqali tanishib, maslahatlar olmoqchiman. Maktublariningizni kutib qolaman.

Ma'fura JAMOLIDDINOVA



Keling, tanishaylik!

Teng YULDUZI
O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetası

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:

To'lqin HAYITOVA

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMU Bosh muharrir o'rinnbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinnbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHOYODGOROV
Navbatchi:
Axtamkul KARIM

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi-198.
e-mail: tong1924@mail.ru

Tel: 144-27-25, 144-63-08
Tel/faks:
(99871) 144-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-
matbaa ijodiy
uyida
chop etildi.
Haftaning
seshanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 54775
Buyurtma N: J 4530

Aka-ukangga bildirma

yoxud yana farzand tarbiyasi
xususida

Farzandlarimiz tarbiyasi haqida juda ko'p gapiramiz. Lekin bu muhim mavzuda qancha ko'p fikrashsak, shuncha yaxshi, deb o'layman. Suhbatimiz esa o'z-o'zidan jamiyatimiz negizi bo'l mish oilaga borib taqaladi. Chunki farzand tarbiyasining negiziga oilada asos solinadi. O'zbek oilasi o'zida ko'p asrlik mustahkam ma'nnaviy qadriyatlarimizni shakkantiradigan go'shadir. U bolada shakllanishi lozim bo'lgan barcha insoniy munosabat va fazilatlarni tarbiyalovchi hayot maktabi hisoblanadi.

Bola tarbiyasi keng qamrovli, uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ota-onas barcha farzandlariga nisbatan bir xilda mehr ko'rsatishi, shuningdek, bir xilda talab qo'yomog'i lozim. Bu xususda Rizouddin ibn Faxriddin shunday yozadi: «Adolat-u insof o'rgatmak uchun hojatlarini o'taganlik va keraklarini tahsil etganingizda hammasini barobar ko'ringiz, hadya berganiningizda ham barchasiga bir xil beringiz, biriga yashirib bir narsa berib-da: «Ehtiyyot bo'l, aka-ukalaringga bildirma» demoq kabi narsalardan saqlaningiz. Chunki bunday etmak ularga aldamoq, xiyonat kabi narsalarni o'rgatadi».

Bola tarbiyasida oilaning har bir a'zosi, ya'ni bobo, buvi, ota-onas, opa, aka, hattoki qo'ni-qo'shnilar ham birdeklar mas'uldirlar. «Bir bolaga yetti qo'shni ota-onas», «Mahallang - ota-onang», «Tog'a yetti ota o'rnda» kabi maqollar bejiz aytilmagan.

Farzand tarbiyasida yana bir sinalgan usul namunadir. Bolalar biz kattalarning yurish-turishimiz, xatti-harakatimiz, o'zaro munosabatlarmiz, tabiatga, jamiyatga munosabatimizdan andoza oladilar. Shunday ekan, farzandlarimizga har taraflama o'rnak bo'laylik. Ularni tejamkorlikka, tadbirdorlikka, tashabbuskorlikka o'rgataylik, dunyoviy bilimlardan voqif etib, kasb-hunar sirlarini qunt bilan egallashlari uchun shart-sharoit yaratib beraylik. Hayot so'qmoqlarida adashib qolmasliklari uchun yoshlikdanoq to'g'ri yo'lda boshlaylik.

Zuhra ALIMATOVA,
Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumani
249-maktab o'qituvchisi

FARZANDINGIZ PULNI NIMALARGA SARFLAMOQDA?

Bugungi kunda «Internet klub»lari soni kundan kunga ko'payib bormoqda. Buni yaxshi tomonlari ham, biroz tashvishga soladigan tomonlari ham bor. Bunday klublardan foydalanuvchilarning asosiy qismini 10-15 yoshli bolalar va o'smirlar tashkil qilmoqda.

Tashvishlanarlisi shundaki, ular turli tarbiyasiz saytlarga kirib, o'yinlar o'ynash bilan vaqtlarini o'tkazishmoqda. Kun bo'yli kompyuter qarshisida o'tirgani yetmagandek, oqshomni ham tungi «Internet klub»larda o'tkazib, tongni qarshi olayotgan o'smirlar ham yo'q emas. Bolalarning ham sog'lig'iga, ham tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bunday holatlarga ota-onalarning beparvoligi sababmasmikin?! Farzandining qo'lliga pul berib qo'yib, ularni nimalarga sarflashni va tunni qayerda o'tkazishni so'ramasligida emasmikin?!

Shuningdek, ota-onasi bergen pullarga kitob, gazeta va jurnallar sotib oladigan o'quvchilarimiz ham yo'q emas. Kelajagimiz mana shunday o'quvchi yoshlarimiz qo'lida ekan, ularni komil inson qilib tarbiyalashimiz, ular qalbida Vatanga bo'lgan mehrni oshirmog'imiz lozim. Shundagina kelajagimiz porloq, yo'llarimiz ravon bo'ladi.

Sherali NAMOZOV,
O'zDJTU talabasi

Maktublarga sharhlar

Aziz bolajontar! II chorakni ham tugatib, qishki ta'til kunlarida miriqib dam olayotgan bo'lsangiz kerak-a? Bilasizmi, tahririyatimizga Sizlardan ko'plab maktublar kelib turibdi. Ba'zi maktublarda o'quvchilar o'z ijod namunalardan yuborishgan bo'lsa, qator maktublarda o'zlarining taklif va mulohazalari bitilgan. Bu sizlarning gazetamizga befarg laringizning maktublari bildiradi. Quyida tengdosh-baho bering:

BUGUNDAN BOSHLAY QOLAYLIK

Davron bilan Ermak qalin do'st. Davron aql-farosatli, kattalarni surmat qiladigan, o'qishlari ham shunga yarasha, hamma fanlardan «a'lo» baho oladi.

Ermak esa tamoman uning aksi. Darslarini vaqtida qilmaydi, har kuni uyiga «ikki» bahoni «ot» qilib minib ketadi. Bir kuni Davronning buvusi Shodmon ota bu ikki do'stni yoniga chaqirdi.

— Bolalarim, — deb gap boshladilar Shodmon ota. — Mening ayni navqiron paytim urush yillariga to'g'ri keldi. Bir burda non topib yeyish amri mahol bo'lgan bir paytda dadam bizga o'qinglar, deb nuqul kitob keltirardilar. Biz och qoringa kitob tatirmidi, deb unga qarashni ham istamasidik. Ammo onam kitobning boshini o'qib berganlaridan keyin biz talashib-tortishib haligi kitobni mutolaa qilishga kirishardik. Sandalning bir burchagida muk tushib olib patnisni to'ntarib, yozishni, chizishni o'rganganman. Ilmsizlik yomon oqibatlarga olib keladi. Sizlar hamma narsa bisyor bo'lgan bir paytda o'qib, bilimingizni oshiring. Yoshlar uchun juda keng imkoniyatlar berilgan, agar yosh bo'lib qolganimda, kitobni qo'llarimdan qo'yagan bo'lardim...

Bu gapdan Ermak uyalib ketdi.

— Davron, — dedi ular bir kuni maktabdan qaytishayotganda. — Bobongning gaplari menga yomon ta'sir qildi. Senikiga har kuni o'ynashga emas, dars qilishga borsam, vaqtin yetarmikin?

— Albatta, — dedi Davron ham o'z navbatida.

— Kel, shu ishimizni bugundan boshlay qolaylik...

Oradan hech qancha vaqt o'tmay, Ermak ham «a'lochi» sinsidoshlarining qatoridan joy oldi.

*Yanar QO'CHQOROVA,
Yugorichirchiq tumani
18-umumta'lim maktabining
7-sinf o'quvchisi*

DILNOMA

2008-yilning yurtboshimiz tomonidan «Yoshlar yili» deb e'lon qilinishi biz yoshlarni yana-da to'linlantirib yubordi. Butun qashqadaryolik yoshlar nomidan yurtboshimizning Prezidentlikka qayta saylanganlari bilan muborakbod etamiz. Biz yoshlar har sohada yetakchi bo'lishga harakat qilamiz. «Tong yulduzi» gazetasi ijodkorlarining ishlariha ham muvaffaqiyatlar tilab qolaman. Ko'plab iqtidorli yoshlarni kashf etishdan charchamang. Sizlarga o'z ijod namunalarimidan yubormoqdaman. Manzur bo'lib gazetangizda chop etsangiz, boshim ko'kka yetardi.

O'N YETTI YOSH

O'n yetti yosh, o'n yetti olam,
Orzulari, tuyg'ulari jo.
Senga oshno tutindim qalam,
Meni tashlab ketmagin aslo,

O'n yetti yosh, qaynoq muhabbat,
Oshiqlarga ko'rsatar izmin.
Yuragiga yozilgan albat,
Bilagida o'yilgan ismim.

*Nigora TOG'AYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod
tumanidagi Agrosanoat
kollejining 2-bosqich talabasi*

DOIM KUZATIB BORAMAN

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi» gazetasi xodimlari!

Men Bobur Ubaydullayev Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 16-o'rta maktabning 9-«B» sinfiga tahsil olaman. Gazetaning har bir sonini kuzatib boraman. Ayniqsa, tengdoshlarimning ijodlaridan namunalar o'qish menga zavq bag'ishlaydi. Mening ham ilk she'rim mana shu gazetada chop etilgan. Bundan yana-da ilhomlanib, she'rlar, qatralar yoza boshladim. Yaqinda viloyatimizda o'tkazilgan «Nafosat» yosh qalamashlar ko'rik-tanlovida 1-o'rinni qo'lgan kiritdim. «Mitti yulduz» deb nomlangan ilk she'riy to'plamim ham nashrdan chiqdi.

Qatralar:

Chayon yaxshini ham, yomonni ham chaqaveradi. Men chaqimchilikni chayonga qiyosladim.

x x x

Jala quyib sel kelsa, hamma narsani oqizib ketadi. Dilozor kimsa ham go'y sel kabidir. Chunki u ham hammaning ko'nglini ranjitadi.

DO'STLARIM BISYOR

Inson yaxshi-yomon kunlarida doimo do'stlariga suyanadi. Bir donishmandga kambag'al kimsa: «Agar pullarim ko'p bo'lganida, men ham boylar qatoriga qo'shilgan bo'lardim. Har bir kumin ayshishratda o'tardi», deb nolibdi. Shunda donishmand: «Agar pullaring ko'p bo'lsa-yu, yoningda do'sting bo'lmasa, sen bundan-da faqir kishiga aylanasan», degan ekan. Mening esa do'stlarim juda ko'p.

Shu bois ham yangi yozgan she'rimni «Mening do'stlarim bisyor» deb nomladim.

*Men dunyoda baxtilman,
Chekmayman sira alam.
Shuncha do'stlarim turib,
Axir nega chekay g'am?
Do'sting bo'lsa dunyoda,
Sen pishqirgan soydisran.
Eng muhimi, ko'kdagi
Charaqlagan oydisran.*



*Gulnoza ABDUPATTAYEVA,
Andijon viloyati, Marhamat
tumanidagi 38-umumiy o'rta ta'lim
maktabining 6-sinf o'quvchisi*

Shuningdek, tahririyatimizga quyidagi o'quvchilardan ham maktublar kelgan. Biz ulardan keyingi sonlarimizda albatta foydalanishga harakat qilamiz:

*Durdona Ma'mirova, Jizzax viloyatidagi 57-ixtisoslashgan maktab-internatining 8-sinf o'quvchisi.
Luiza Jo'rabe kova, Yugorichirchiq tumani
18-umumta'lim maktabining 7-«F» sinfig o'quvchisi.
Dinara Shomuhammedova, Sirdaryo shahri, Sirdaryo viloyati.
Shalara Samadova va Setora Farhodova, Surxondaryo viloyati, Denov tumani
30-umumta'lim maktabining 3-«D» sinfig o'quvchisi.*

*Aziz bolajontar, sahifalarimizda yana qanday magotalar o'qishni istaysiz? Bu haqda bizga yozib yuboring.
Maktubringizni kutamiz.*

«Yangiyo'l» — bizning hamkorimiz

Tong yulduzi
8 yanvar
2008

Azim Toshkentimizning shundoqqina yonginasida Yangiyo'l tumaniga qarashli Niyozbosh qishlog'i joylashgan. Rivoyat qilishlaricha, Jizzax viloyatidan kelgan mengan aka-ukalar allaqaysi yurt boshlig'ining polvonini yengib, evaziga Toshkent atrofidiagi sersuv, sero'tloq, yam-yashil bog'rog'larga kon bo'lgan bir go'shani so'rab olishibdi. U yerda bir-biriga yaqin bo'lgan tepaliklar ko'p ekan. Xonadonlar soni ortgandan ortib, oilalar ikkinchi tepalikka ham ko'chib o'tibdilar.

Keyinchalik Jizzaxdan ularni so'roqlab keluvchilar ko'payibdi. Shu tariqa bu sokin go'shada ham hayot qaynay boshlabdi. Yo'qlab kelganlar ham bu yerda muqim bo'lib qolib, oilalar soni orta boshlabdi.

Bir kuni Jizzaxdan ularni yo'qlab Niyoz degan yigit kelibdi. Uni o'z yurida Niyozbotir deb atashar ekan. U bu yerda ham o'zi tengi yosh-yalang yigitlarga bosh bo'libdi. Negaki, bu yerdagi oilalarning tinchi, farovonligini ko'rolmaydiganlar ham topila boshlagan ekan-da. Niyoz boshliq yigitlarning qishloq tinchini buzuvcchi yovlar bilan qilgan murosasiz kurashlari hammayoqqa yoyilibdi. Borabora aholi qishloqni Niyozboshi deb ataydigan bo'libdi.

Respublikamizning turli viloyatlari, shahar va qishloqlarida «Tong yulduzi» kunlari ni o'tkazish tahririyatimizda yaxshi bir an'anaga aylanib qoldi. Yangi yil bayrami arafasida bizni aynan ana shu Niyozbosh qishlog'idagi 27-maktabga taklif qilishganidan behad quvondik. Sababi, Rauf Parfi, Tursun Ibrohim, Tursunboy Azimi, Yusufjon Huzuriy kabi ko'plab taniqli qalam ahli etishib chiqqan bu so'lim go'sha haqida ko'p eshitgandigu, o'z ko'zimiz bilan ko'rmasandik.

Respublikamizning turli viloyatlari, shahar va qishloqlarida «Tong yulduzi» kunlari ni o'tkazish tahririyatimizda yaxshi bir an'anaga aylanib qoldi. Yangi yil bayrami arafasida bizni Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumanida joylashgan 27-maktabga taklif qilishdi. Bu taklifdan behad quvondik. Sababi, Rauf Parfi, Tursun Ibrohim, Tursunboy Azimi, Yusufjon Huzuriy kabi ko'plab taniqli qalam ahli yetishib chiqqan bu so'lim go'sha haqida ko'p eshitgandig-u, o'z ko'zimiz bilan ko'rmasandik. Uchrashuv bahonasida yana ko'plab ajoyib ijodkorlar, iqtidorli o'quvchilar bilan tanishdik.

«Yangiyo'l» gazetasi Bosh muharriri Ahmadjon aka Rixsiboyev ochib bergan tadbir haqiqiy mushoiraga aylanib ketdi, desak ishonavering. Kattagina faollar zalini to'ldirib o'tirgan o'quvchilar «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharriri To'lg'ın Hayitning qiziqarli suhbatni, adabiyot bo'limi mudiri Axtamqul Karimning she'rlarini maroq bilan tinglashdi. Ayniqsa, savoljavoblar tarzida o'tgan o'yin-muloqot juda qiziqarli kechdi. G'oliblarga sovg'a tariqasida tarqatilgan kitoblarning talash bo'lib ketishidan, maktab o'quvchilarining kitobxonliklaridan mammun bo'ldik.

Niyozboshlik bolalar shoiri Abdurahmon Akbar hamda ijodkor o'qituvchi Mirzakarim O'tbosarovlar boshlab bergan she'riy mushoirani maktabning ijodkor o'quvchilar o'z she'riy mashqlari bilan davom ettirishdi.

«Yangiyo'l» gazetasi Bosh muharriri Ahmadjon Rixsiboyev bilan qurban maroqli suhabatimiz davomida Ulug'bek Mustafo, Murod G'aznaboyev, Boboxon Abduraimov, Fayzullo G'ulom, Abdurahmon Akbar, Nasiba Ahmadjonova kabi ajoyib ijodkorlar qalami gazeta qoshida faoliyat ko'stayotgan G'afur G'ulom nomli «Orzu» adabiy uyushmasida charxlanganini biliq oldik.

Bolalarning sevimli shoiri Abdurahmon Akbar boshqarib kelayotgan uyushma bugungi kunda ham yangi-yangi iste'dod egalarini kashf etishda o'ziga xos maktab vazifasini o'tab kelyapti.

Uyushma a'zolarining she'rlaridan ayrimlarini Sizga ham ilindik:



BIZNING HOVLIDA BAYRAM

Kechki salqin bo'lganda,
Oyim ishdan qaytganda,
Uylar nurga to'lganda,
Bizning hovlida bayram.
Yozib to'kin dasturxon,
Bo'y taratar issiq non,

Hammamiz jam bo'lgan on,
Bizning hovlida bayram.
Rayhon isin taratar,
Ko'ngillarni yayratar,
Kunimiz shodon o'tar,
Bizning hovlida bayram.

Orzu QURBONXO'JAYEVA,
tumandagi 7-umumta'lim
maktab o'quvchisi



OPAJON

(Qo'shiq)

Quyosh kulta osmonda,
Dilga kuy, bahor to'lar.
Bo'yga yetgan har bir gul,
Bir yigitga yor bo'lar.

Naqorat:

Opa, opa, opajon,
Bugun sening baxt to'ying.
Opa, opa, opajon,
Shodlikka to'lsin uying.


Ota-onha, qarindosh,
Ko'zida sevinchdan yosh.
Opajonim o'zingsan,
Qizlar ichra qalamqosh.



Naqorat:

Dunyo go'yo to'yxona,
Borliq ajib gulxona.
Baxting bersin Ollohim,
Yoring bo'lsin parvona.

Ra'no RIXSIBOYEVA,
Yangiyo'l akademik
litsey talabasi



Tadbirdan bir olam taassurotlar bilan qaytar ekanmiz, «Yangiyo'l» gazetasi bilan ijodiy hamkorlik qilishga, gazetamiz sahifalarida uyushma a'zolari ijodidan namunalar berib borishga ahd qildik.

«TONG YULDUZI» NIYOZBOSHDA



MEHRIBON AKA-UKA

Mening ikki ukam bor,
Birining ismi Zafar.
Judayam chaqqon o'zi,
Sho'xliklarni xush ko'rар.
Ikkinchisi Abdulla,
A'lochi matabida.
Futbolga qiziqishin,
Ta'kidlar har gapida.
Bir-biridan mehribon,
Mening ikki ukam ham.
Ulardan xursand doim,
Oyijonim va dadam.



Komila
TOSHPOLATOVA,
«Kelajak ovozi»
ko'rik-tanlov soyrovindori

BOBURMAN

Andijon osmonida suzgan bulutlar,
Bag'ridan to'kilgan ko'z yosh, yomg'irman.
Yurak to'la armon bo'lmas unutlar,
Yurt hajrida yongan Mirzo Boburman.
O'n ikkima chiqdim shohlik taxtiga,
Mas'um baloligim yig'lar: Majburman!
Toj-u taxt chang solmish go'dak baxtiga,
Baloligi armon Mirzo Boburman.
Saltanat ishlari, qonli urushlar,
Charchatdi jismimni, ko'p oh ururman.
Bog'langan sher kabi qalbim huvillar,
Dardi ko'p, dardkashsiz Mirzo Boburman.
Hind sori yuzlandim, ketib yurtimdan,
Anda sulton bo'ldim, lek musofirman,
O'zga yurtda shoh bo'lmay, ona yurtimda,
Gadolikni afzal bilgan Boburman.
Bugun yurtim obod, xalqim hur, ozod,
Moziydan boqaman, shodman, masurman.
Uning jamoliga ko'z tegmasin deb,
Duo-jonin qilgan Mirzo Boburman.

Hakima ERMATOVA,
tumandagi «Paxta» mahallasi
maslahatchisi



Tong yulduzi
2008 8-yilvar

Mehmonxona atrofi katta gulzor bo'lib, turli va hisobsiz rang-barang gullar tovlanib yotar, balkondan turib bu manzarani tomosha qilar ekanman, hind kinolaridagi gullar vodiysi yodimga tushib, ularni tasvirga tushira boshladim.

A y t i s h l a r i c h a , Hindistonda bir soatda to'rt million dona gul hadya etilar yoinki uylar, mehmonxonalarini bezash uchun uzilar ekan.

Bir kun mehmonxona devoriga taqab qurilgan kapadan bir bolakay meni imlab chaqirayotganiga ko'zim tushdi. E'tibor bersam, u turli o'yinlar ko'rsatmoqchi va ularni tasvirga tushirishim mumkinligini imo-ishoralari orqali tushuntirmoqchi bo'lyapti.

«Daydi» filmidagi bolakay yodingizdam yoinki «Zita va Gita» filmidagi qizaloqni eslaysizmi? Ularning kiyimi, nog'ora chalishi, dorda o'ynashi, hayratlanuvchi jismoniy mashqlari xuddi mana shu bolakayni eslatar va ularning oilasi suratga olinganday edi. Shaharda bunday bolakaylar va bunday oilalar minglab uchradidi.

Ularni tasvirga tushirar ekanman, bolakay bilan ham tanishib oldim. Ismi Mukesh ekan.

Bolakay har gal mehmonxonaga kelganimda yoki ketayotganimda qo'l ko'tarar, «Mister, yangi o'yinlaridan ko'rsataymi?» deya so'rardi. Men unga o'n rupiy uzatar va tasvirga olishni boshqa kunga qoldirardim.

Hindlar ham o'z kinolarini sevisharmikin, degan xayolda bir kuni kinoga tushdim. Kinoteatrda odam gavjum, chipta narxi osmonda. Shohruhxon ijrosidagi yangi filmni tomosha qilar ekanman, bir necha qator oldinda yig'lab o'tirgan Mukeshga ko'zim tushdi. U kinoga berilib ketgan, chaqirishimga ham quloq solmasdi. Kino tugagandagina, yonimga chaqirib oldim.

—Nima, sen ham birovni yaxshi ko'rib qolganmisan? — dedim yarmi hazil, yarmi chin aralash.

U mening taajjubimga javoban tasdiqlovchi ravishda boshini qimirlatdi.



Ko'ngil daftari

Samolyotimiz Dehli shahriga qo'nganida, havo ochiq, harorat 27–30 daraja issiq edi. Dehli ko'chalari yam-yashil daraxtlarga burkangan, ko'cha bo'ylarida erinchoq maymunlar galasi tamshanib, o'tgan ketganlarni tomosha qilib o'tirishadi. Bizni kutib olishga chiqqan hind do'stlarimiz bo'ynimizga shoda-shoda moychechaklar guldastasini osishdi. Ularning xushbo'y va muattar hidi dimog'imizga urilib, beixtiyor hind kinolarini yodimizga tushirdi.

MENPKECHIR, MUKESH

(Hindiston xotiralari)

— Kimni?
— Ko'rsataymi?
— Ha,— dedim va:
— Nima, u senga rad javobini berdimi?— so'radim.
— Ha,— dedi u.
— Men o'zim aytib qo'yaman, sen yaxshi bola ekansan. Yo'q demaydi,— dedim.

Mukesh kinoteatrdan chiqayotgan odamlarni ko'rib, tilanchiligi esiga tushib ketdi shekilli, ketishga shaylandi.


Qiziq, kinoga chipta olish uchun u necha kun tayyorlandi ekan? Umuman, tilanchilarining kinoga tushishi g'ayritabiymi yoki oddiy holmi?

Shundan so'ng, mehmonxona eshigi oldida har tong Mukesh meni poylab turadigan, yaxshi ko'radigan qizining



chorlay boshlashdi. Mukesh bilan shu yerda xayrashdir. Xayr, Mukesh! Xayr, Hindiston!

Muhammad ISMOIL



— Tu'tilda tabiat qo'ynida kezish qanchalik maroqli, — deydi Qarshi shahridagi 15-maktabning 3-sinf o'quvchisi Aziza ALLABERDIYEVA.

BEG'UBOR KO'ZLAR

Shayxontohur tumanida joylashgan 98-maktab-internatiga yaqinlashar ekanmiz, intiq nigoohlari bilan kimnidir kutayotgan qizaloqqa ko'zimiz tushdi. Bu mitti qizaloqning qanchalar mehrga tashnaligi jovdirab turgan beg'ubor ko'zlaridan sezilib turardi. Bizni ushbu maktab-internatining direktori Karimova Nigora Rashidovna kutib oldilar. Bu ayolning ochiq chehraligi-yu, samimiy diltortarligi, bolajonlarning har biriga birdek munosabatda bo'lishi e'tiborimizni tortdi.

Onalarning farzandi uchun alohida qayg'urishini tushunsa bo'ladi, ammo rahbarning maktabdagi 400 ga yaqin bolaning har birini ko'nglidan nima kechayotganligi-yu, nimalar haqida o'y surayotganligigacha bilihi bizni hayratda qoldirdi. Bolalarni birin-ketin chaqirib bizga tanishtirar ekan, ularning o'z onasiga erklangandek erkalanishi, oyoqlarini quchgancha bizni tinglashi kishini to'lqinlantrib yubordi. Aslida har bir bolaga o'z farzandiga qanday munosabatda bo'lsa; shunday mehr berish bu ayolga xos bo'lgan ajoyib fazilatlardan biri, deb o'yadik.

Maktab-internatdagi iqtidorli bolalar chet tili xonasiga to'plandilar. Xonaga kirib borganimizda, bolajonlarning sho'x-shodonligi va qiziquvchanligidan hayratga tushdik. Ular bizni turfa savollarga ko'mib tashladilar. Bu yerdagi 1-sinfdan to 9-sinfgacha bo'lgan iqtidorli o'quvchilarining suhabatimizga tayyor ekanliklari yuzlaridan sezilib turardi. Bolajonlar «Yangi avlod – 2007» festivalini ohib bergen va bir qancha mukofotlarni qo'lga kiritgan «Tinchlik» qo'shig'ini kuylab berdilar.

Maktabda sport ishlariiga ham katta e'tibor berilgan. O'quvchilar maktablararo o'tkazilgan futbol, voleybol va shaxmat musoboqlarida faol ishtirot etishib, faxrlı o'rinnarni egallashgan ekan. «Hamma sport to'garagiga qatnashaman, o'qituvchilarimiz biz uchun yetarli sharoit yaratishgan, bu yerda vaqtim bekor ketmaydi, men yana qo'shiq aytishni, rasm chizishni ham yaxshi ko'raman», dedi Asliddin. Biz o'quvchilar bilan xayrasha turib, kelajakka yangi fikr va yangi orzular og'ushida yurgan bolajonlarimizga havas qildik.

Jamshid NABIYEV,
Nafisa RUSTAMOVA

oldiga olib borishini tayinlaydigan bo'lib qoldi. Go'yoki men borib Mukesh sevib qolganini aytsam, u qiz ko'nadiganday edi. Lekin men qizni oldiga borishni har gal'orqaga surar, albatta borishimni, Mukeshning ko'ngil izhorlarini yetkazishga va'da berardim.

Hindiston bilan xayrashar ekanmiz, buyuk bobomiz qurib ketgan Tojimahal yana qalbimizga g'urur va iftixon tuyg'ularini soldi. Dunyoda bobomiz singari o'z sevgilisiga mana shunday buyuk yodgorlik qoldirgan yana bir inson bormi? O'zining buyuk muhabbatiga boqiy timsol o'matgan, muhabbatning mangulik qasrini qurib ulug'lay olgan, o'zbekning muhabbat, abadul-abad yashashini ko'rsata olgan yana kim bor? O'zbekning qalbini, o'zbekning muhabbatini, o'zbekning buyukligini Tojimahal timsolida qayta-qayta ko'rib, kim hayratga tushmaydi, kim tasanno aytmaydi?!

Dehli aeroporti odamlar bilan gavjum.

Bir payt aeroport oynasini qattiq-qattiq urib, meni chaqirayotgan Mukeshni ko'rib qoldim. U meni imlab chaqirdi-da, baqirib so'roqqa tuta boshladи:

Qachon u qizga men haqimda aytasan, men bilan nega xayrashmay ketayapsan, uning oldiga boramiz, deb va'da berganding-ku?

Men nima deyishni bilmay qoldim. Mukeshning ko'zidan duvvud yosh to'kila boshladи:

— Axir borib aytaman, deganding-ku...

— Nima, u mening gapimga kiradi, deb o'ylaysanmi?

— Bilmadim. O'zim aytolmasam, nima qilay...

— Men yanagi safar kelganimda, ancha katta bo'lib qolasan, balki o'shanda aytarmiz.

— Faqat meni aldab ketma. Kelishingni intiqib kutaman.

— Xayr, Mukesh. Albatta ko'rishamiz.

Mikrofondan Dehli-Toshkent yo'nalishi bo'yicha yo'lovchilarni ro'yxatdan o'tishlarini so'rab, chorlay boshlashdi. Mukesh bilan shu yerda xayrashdir. Xayr, Mukesh! Xayr, Hindiston!

Adiblar — bolatarga

Tong yulduzi
8-yanvar

2008



Va Bolakay haqida qissa

bo'lsa, qiziq gaplardan aylib, kuldirib o'tirardi. Afsuski, u kelmayapti. Axir oyisi rozi bo'lmasa ham chaqirdiku. Nega kelmaydi?

Shu vaqt xuddi Bolakayning savolini kutib turgandek, jajji motorning qulqoqqa tanish tovushi eshitildi. Lahza o'tmay, oshxona derazasidan zuv etib Karlson kirib keldi.

— Salom, Bolakay! Mana, men yetib keldim!

Karlson xonani ikki aylanib, bo'sh stulga kelib qo'ndi. Ammo o'ziga likopcha, pichoq, sanchqi qo'yilmaganini ko'rib, labini burdi.

— E-e, meni kutmagan ekansizlarda? Unaqa bo'lsa, hozir qaytib ketaman...

Bolakay irg'ib turdi. Shkafdan



Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

— E... bilsang, bir zolimni qo'liga tushib qobdi bechora, ostona hatlab ko'chaga chiqarmasakan. Jon xola, bir yaxshilik qiling, bolamni obkelib bering, deb bir hovuch tilla taqinchoqlarini qo'limga tutqazsa bo'ladimi?! Shoshib qoldim, yuragim qinidan chiqay dedi-ya,

Erkin MALIK
BO'LGAN EDI...

Tursunxon aylanay, onalar shunaqa bo'latta o'zi, bolasi deganda, ko'ziga dunyo ko'rindimi?! Shoshmang, deb taqinchoqlarini nari itardim, oldin bolangizni olib kelay, bundoq bag'ringizga bosing, diydoriga to'ying, suyunchisi bir gap bo'lar, dedim.

Hozirgina bir yaxshi bo'lib turgan ammam birdan bobillab tashladilar:

— E, tushingizni borib suvgaga aiting, u xotin borib turgan mo'ltoni, — ammam boshidagi ro'molini yechib, xuddi xola bilan yummatalashadigandek boshqatdan sirib bo'g'dilar-da, To'ychi xolaga xezlandilar: — Ja topibsiz anoyini, shuncha yil o'tib, bolasini daragini toparmish-u, obkelib bering, deydimi...

Voy yoqmay ketsin, tayyor dastyor kimga kerakmas. Bilib qo'ying, hov xotin, shu bolaga bir gap bo'lsa, ammamning qo'llari musht bo'ldi, — ikki qo'lim yoqayizda bo'ladi...

To'ychi xola h o v l i m i z g a qanday shoshib



UCHAR OTLAR

BO'LGAN EDI...

Qissa

6

Astrid LINGREN

bitta likopcha obkelib, Karlsonning oldiga qo'ydi.

— Seni kutib o'tiruvdik, Karlson! — dedi Gunilla, — kelganing yaxshi bo'ldi.

— Hamma narsani yeb qo'ymadinglarmi? Qani, ko'raylik-chi! — dedi Karlson va tortdan uzib olib og'ziga soldi, so'ng somsaga yopishdi. Likopchani buterbrod ga to'ldirib qo'ydi.

— Rosa ochiqib ketuvdim o'ziyam, to'yib olay...

U labidagi qaymoq yuqini yalar ekan, yonginasida g'ingshiyotgan Bimboni sezib qoldi.

— Kimniki bu? Gunillaninig Yoffasimi?

— Yo'q, — dedi Bolakay g'urur bilan, — buni dadam sovg'a qildi. Bu Bimbo! Uni qishloqqa olib ketaman.

Karlson shapillatib manglayiga urdi.

— Esim qursin, axir men ham senga sovg'a obkeluvdim, mana! — u cho'ntagidan chiroyli kumush hushtak oldi, — buni chalib, Bimboni chaqirib yurasan.

Karlson hushtakni puflab, Bolakayga berdi.

— Rahmat! — dedi Bolakay, — Bimboni chaqirishga yaxshi ekan bu.

U bir-ikki chalib ko'rdi.

— Aytib qo'yay, menga kerak bo'lib qolganda, hushtakni berib turasan. Axir men ham kuchuklarimni chaqirib qolishim mumkin-da.

— Bo'pti, — deb kuldil Bolakay va hushtakni cho'ntakka urdi. Karlson esa oldidagi turli xil pishiriqlarga yopishdi. Uning ishtahasi ochilib ketgan edi.

Davomi bor.

kirgan bo'lsalar, ammamning vajohatidan qo'rqib, xuddi shunday shoshib chiqib ketdilar. Orqalaridan ko'nglim alag'da bo'lib, qarab qoldim...

x x x

Otlar bilan do'stlashishni bizga Karimboy chol o'rgatgan. Biz qachon bo'lmisin, otlarga yaqin kelganda shoshib qolamiz. Tezroq minsag-u, qamchi bossak. Otlar bir-biridan o'zib, shamoldek uchsa. Shunda Karimboy chol bukchayvolib, boshini toshbaqanining boshiday nari-beri obkelib onadan so'kib qoladi:

— Hov, molli ketida o'sganlar, senlarga ming marta aytaman, otti orqasidan kelmalaring deb. He, bo'rivachechaga o'xshamay o'llaring... naq peshonangdan darcha ochib qo'yadiya... Ha, erta kunda jin chalsin baringni...

Hushyor tortib, endi otlarning yon tarafidan kelmoqchi bo'lamiz. Yana qovun tushiramiz.

— Iya, hov otto'rvalar, u tarafdanmas-e, — Karimboy chol jahl bilan bir qadam oldinga bosib, sop qolay deb yon-veridan kesak qidirib qoladi, biz nima qilishni bilmay sarosimada qolamiz, har tugul u otishga bir nima topmay, yana jag'iga zo'r beradi: — Iloya quloqlaring tommi tagida qolsin... bundoq bitta aytgan gapni obqololmasalaring, esaraklar...

Karimboy cholning aytishicha, har bir otning o'z qo'rg'oni, unga kirib-chiqish eshigi bor. Otning kirish eshigi chap tarafida bo'ladi. Undan bismilloh aytib, kirish kerak. Shunday demasa, bo'lmaydi. Keyin chap oyoqni uzangiga qo'yib, o'ng oyoqni ustidan oshirish kerak. Shunda ot kimniki — minganniki bo'ladi. Bo'lmasa, ot odamni ko'ta-r-eb turib, yerga uradi... Yo bo'lmasa, olib qochadi-yu, gadoy topmas yoqlarga yiqitib, tashlab ketadi. Ana undan keyin...

— Belingiz o'shanaqada chiqib ketganmi? — so'raymiz Karimboy choldan bukrisiga ishora qilib.

— Ha, bumi? — deya Karimboy chol bukrisini ko'rmochi bo'ladi, ammo boshi qayrilgani bilan, qaddi ko'tarilmaydi. — O'zimdan o'tgan, o'zimdan, — deb o'zidan jahli chiqadi.

DO'ST



Do'stlik so'zi muqaddas erur,
Do'stlik mehri yurakka payvand.
Do'st qadriga yeting har doim,
Do'sti borlar erur sarbaland.

Ozor bermang do'stingizga hech,
Darz ketmasin ko'ngil dunyosi.
Boshingizga tushgan da, tashvish,
Bilinadi mehr-u ziysi.

Do'stingman deb yoningda yurib,
Oyog'ingdan chalguvchi bisyor.
Shuning uchun do'stni tanlashda,
Adashmangiz do'stlarim, zinhor.

Gulhayo SARANOVA,
9-«B» sinf o'quvchisi



VATAN

Vatan, mehribonim o'zingsan,
Tuprog'ingda borliq yashnagan.
Onam kabi mehringni berding,
Kitobimsan o'qiy boshlagan.

Vatan, men bir ko'kargan maysa,
Senga berib qo'ydim dilimni.
Yuragimga shodlik ko'karsa,
Burro qilib qo'ygin tilimni.

Gulmira SARANOVA,
Samargand viloyati,
Pastdarg'om tumanidagi
60-umumi o'rta ta'l'm
maktabining 10-sinf o'quvchisi



O'LKAM

Husningga bivor zot
Berolmas baho.
Qish to'ni yelkangda
Go'zal, bebah.

Men uchun azizsan,
Yagona, yakka.
O'xshabsan shu tobda,
Oq dil go'dakka.

MAHFUZA,
Sergeli tumanidagi 322-maktabning
4-sinf o'quvchisi



OPPOQ ORZULAR OG'USHIDA

«O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» Jamg'armasi



● 2006-yilda 10 ming nafarga yetdi. 2007-yili esa tanlovdan qatnashish uchun 32 mingdan ziyod arizalar qabul qilindi. Bunday faoliyning o'ziyoq ushbu tanloving katta maqomga ega ekanligini ko'rsatib turibdi.


● Milliy madaniyat, san'at, yoshlar va bolalar ijodini qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, Fond Forum o'z faoliyatining dastlabki yillaridanoq, sport sohasidagi loyihalarga e'tibor qaratdi.

● Yangi yil ostonasida poytaxtimizning «Forum yunior sport» Bolalar sport majmuasida badiiy gimnastika bo'yicha «Snejinka – 2007» klub birlinchiligi bo'lib o'tdi. Bunda 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan majmuuning 36 nafar tarbiyalanuvchisi qatnashdi. Ular yangi yil musobaqasida jamg'armaning bosh sovrini uchun bellashdilar. Iymona, Jasmina Immayeva, Jasmina Adbunazarova va Asal Ahmedova kabi gymnastikachilar yuqori o'rinnarni egalladilar. Qolaversa, 18 yoshli gymnastikachilarga jamg'armaning qimmatbaho va esdalik diplomlari ham topshirildi. Majmuuning ustoz O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi Anela Malkinaning mehnatlari shu kuni yana bir bor ota-onalarining tahsiniga sazovor bo'ldi. Jazzi gymnastikachilarning quvnoq va jo'shqin musobaqlari esa yig'ilganlar ko'ngliga bolalikning beg'ubor hayajonini taqdim etdi. Ayniqsa, zal to'rida rang-barang sharlardan yasalgan Santa

Bugun xuddi shu tanlov o'zining dadil va odim qadamlari bilan yurtimizda milliy loyiha maqomini oldi. Chindan ham bu loyiha izlanuvchan va intiluvchan bolalarning ishonchiga aylandi.

Raqamlarni ko'zdan kechirganimizda, 2005-yili ilk bor o'tkazilgan tanlovnинг 3 ming nafar ittdi

Bolalar, siz yurtimizda ezgu ishlarni boshlagan «Kelajak ovozi» respublika yoshlar tanlovi haqida ko'p bora eshitgansiz. Albatta, «O'zbekiston madaniyati va san'ati Forumi» jamg'armasi va «Kamolot» YOIHAM korligida tashkil etilgan ushbu tanlovdan kuni kecha poytaxtimizning muhtasham «Xalqlar do'stligi» saroyida 120 nafar iste'dodlar shu tanloving g'olibiga aylangandi.



Klaus gimnastikachilarning va mohir u-shuchilarning jozibador chiqishlaridan go'yoki yayrab ketdi.

2005-yilning avgust oyida ochilgan bu majmuuning asl maqsadi ham bolalarni sog'lom turmush tarziga o'rgatish va istiqbolli sportchilarni yutuqlarini o'stirish kabi xayrli ishga bosh-qosh bo'lish edi.

Hozirda ushbu majmuuning 100 ga yaqin umidli iste'dodlari kamol topyapti. Yildan yil o'z muvaffaqiyatlari tufayli quloch yozayotgan

jamg'arma yana bir katta ishga qo'l urmoqchi. «Championlara forumi» deb ataluvchi yangi sport majmuasining ochilishi yana ko'p championlarni kashf etishi aniq. Yurtboshimizning hech bir narsa sportchalik bizni dunyoga mashhur qilolmaydi, degan purma'no so'zlar bejiz aytilmaganiga ishonch hosil qildik. Shuning uchun hech bir iste'dod

panada qolib ketayotgani yo'q. Ularni tongimizdek oppoq orzular og'ushida chorlab turibdi.



2008-yil sport hayotida

12-13 - yanvar kunlari Kalomnada ot sporti bo'yicha Yevropa championati o'tkaziladi.

2-may - Kanadada muz ustida xokkey bo'yicha 71-dunyo championati start oladi.

7-iyun - Avstriya, Shveysariyada futbol bo'yicha «Yevropa championati – 2008» ning ochilish marosimi bo'lib o'tadi.

8-avgust - Pekinda XXIV yozgi olimpiya o'yinlarining tantanali ochilishi o'tkuziladi.

SPORT ta'til bilmaydi

Qishki ta'tilning birinchi kunlaridanoq boshlangan musobaqlar sportchi bolajonlarning Yangi yil bayrami-u Qorbobo sovg'alarining quvonchi bilan qorishib ketdi. Qorqirovli kunlar bo'lishiga qaramay, o'lcamizning barcha hududlarida Xalq ta'limi vazirligining «Jismoniy tarbiya va sport oyligi» to'g'risidagi buyrug'i esa sportchi bolajonlarga dalda bo'ldi. Sport zallarining qay biriga bormaylik, turli musobaqlar avjida. Sportda qirol bo'laman deguvchi bolajonlarga sovuq kunlar aslo ta'sirini o'tkazayotgani yo'q.

2-yanvardan boshlangan futbol musobaqlarida, kichik «Paxtakor»chilar «Quruvchi», «Metallur», «Tapoich» kabi jamoalar bilan bellashdilar. Mamlakatimizning bosh jamoasi bolalar futbol akademiyasining tarbiyalanuvchilari viloyat va shahardagi o'z tengdoshlari bilan «Paxtakor»da 10 kun davomida to'p suradilar. Bo'lg'usi «Paxtakor»chilarning niyati barcha jamoalardan ustun kelish.

— Uyimizga Qorbobo kelganida, men undan turnirda g'olib bo'lishimiz uchun niyat qilishini aytdim, — deydi jamoaning markaziy himoyachisi Yusuf.

— Men esa Yangi yil kuni ko'p shirinliklar yedim, demak turnirda kuchliman, — deya maqtanadi Nikita.

Ha, ta'tilning maroqli damlari barcha sportchi bolalarga yaxshi muvaffaqiyatlar eshigini ochsin, deb umid qilamiz.

*Ma'mura MADRAHIMOVA,
rasmlar muallifi: Muhammadislom ZOHIDOV*

KOMPYUTER ASALLIGI

Kompyuterni puxta o‘rganish va undan foydalanishda me’yor bo‘lgani yaxshi. Bugun ko‘pchilik kompyuterni eng zamonaviy texnika vositasi sifatida qabul qiladi. Lekin hamma ham uning xayrli tomonidan ko‘ra, ziyonli tomonlari borligini ham xayoliga keltiravermaydi.

Bolalar kuniga kompyuter bilan atigi bir ko‘pi bilan ikki soatgina shug‘ullanishlari mumkin. Agar bundan oshiqroq vaqt kompyuter bilan band bo‘lishsa, sog‘liqlariga ancha putur yetishi mumkin. Shu sababdan, Moskvada va ko‘pgina mamlakatlarda bolalarning kompyuter bilan shug‘ullanishlari cheklab qo‘yildi. «Internet kafe»larga bolalarning kirib, turli bo‘lar-bo‘lmas o‘yinlar bilan shug‘ullanishlariga chek qo‘yildi.

Hatto yaqinda Xitoyda kompyuter o'yinlari kasallligiga duchor bo'lgan bolalarni davolovchi shifoxona ham ochildi.

Xitoylik ruhshunoslar uzoq tekshiruvlardan so'ng, har yuz boladan sakkiz nafari kompyuter o'yinlariga bog'lanib qolganligi, ular hatto maktabga ham bormay, vaqtlarini turli o'yinlar bilan «Internet klub»larda o'tkazayotganliklarini aniqladilar.

Mutaxassislar bunday o‘yinlarga berilgan bolalar vaqtlarini xushchaqchaqlik bilan o‘tkazish, o‘yingohlarga bemalol kirishlari uchun pul topish maqsadida jinoyatga ham qo‘l urishlari mumkin, deb xulosaga kelishdi.

Ayni kunda o‘z faoliyatini boshlagan va ming kishiga mo‘ljallangan shifoxonada bo‘sh o‘rin qolmagan. Mutasaddilar XXI asrning vabosi sifatida ta’kidlashayotgan bu kasalliklar xitoylik bolalarni saqlab qolish uchun yana bir necha shifoxonalar tashkil etishni rejalashtirmoqdalar.

Bundan bizning mamlakatimizning ta'lim muassasalari rahbarlari, ota-onalar tegishli xulosa chiqarib olsalar kerak. Aks holda, ko‘p o‘tmay bu kasallik kelajak avlodimiz hayotiga jiddiy xavf solishi mumkin.

XANDALAR



— Qani, bolalar, hamma fanlardan tutgan daftarlaringizni olinglar-chi, — dedi o‘qituvchi va birma-bir tekshira boshladи.

Navbat Muzaffarga kelganda:

— Nega sening daftaring bitta, qolganlari qani? — so‘radi ajablanib.


— Qolganlari shuning ichida, ko‘rmayapsizmi, axir ustiga «Umumiy daftar» deb yozib qo‘yilgan-ku, — dedi Muzaffar hoziriavoblik bilan.

K. Bhatia.

Hayvonot bog'ini sayr qilib
qaytgan Davronni buvisi gapga soldi;

— Hayvonlarni ko‘rib keldingmi, bolam, qaysi biri yoqdi?

— Hammasi yoqdi-yu, fil bilan kenguru dumlarini almashib olishsa, yaxshi bo‘larkan-da, — dedi Davron kattalardek ijiddiy ohangda.



Viloyat INOYATOVA chizgan rasm

SKANVORD

Maqom turi		Unum	Idrok	Halo-vatsiz		Havo					
								Gaz-lama		Sokin lik	
							Fari-shista			Mulzam	
Sevgi											
Hodi-sa						Libos	Fizik olim		Mual-limi soniy	Ayol ismi	
				Yevro-padagi poytaxt		Rohat					
Asal						Jami-yat asosi	O'sim-lik dunyosi				
Rus adibi	Gaz	Fursat	Samo jismi								
				Janub tog'i	Ozuqa	Zafar		Ilmli ayol		Taom	
					Dunyo tomo-ni					Hasha-rot	Sport fir-masi
	Nota	Xat					Mash-hur opera				
								Sath birligi			
Og'ish-mas	Narsa miq-dori						Suvod ash-yosi	Kimyo mod-dasi	Meh-nat		
						Oi-mosh				Hur-sand	
O'lja	Yer te-kislash asbobi						Baho o'l-chovi	Arab harfi		Erkak ismi	
				Suv yo'lli	Rang	Avto marka					